

ERKAK VA AYOLLARDA TIL QOBILIYATI VA MIYA FUNKSIYALARI O‘RTASIDAGI FARQLAR

B.M. Polvonova,
Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikdagi neyrolingvistika va uning o‘rganilish sohalaridan biri bo‘lgan gender farqlarni til qobiliyati va miya funksiyalari jihatidan tahlil etilishining bugungi va kelajakdagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: nevrologiya, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, neyropsixologiya, psixolingvistika, afaziya, afaziyalogiya, gender farqlar, miya funksiyalarining jins tomondan o‘zgachaligi, amigdala, hipokampus, kallosum to‘qimasi.

Hozirda jadal o‘lib borayotgan tilshunoslik sohalaridan biri neyrolingvistika va uning tarmoqlaridir. Neyrolingvistikaning (lot neuron-nerv va lingua — til) fan sifatida vujudga kelishi, bir tomondan, neyropsixologiyaning, ikkinchi tomondan, lingvistika va psixolingvistikaning rivojlanishi bilan bog‘langandir. Bu sohada asosiy o‘rganiladigan obyekt etib nutqning miyadagi akslanishi nazarda tutiladi.

Har qanday nutq, yozma yoki og‘zaki bo‘lishidan qat’i nazar, miya orqali boshqariladi. Ya’ni til imkoniyat tarzida turganida ham, nutqda voqelanganida ham unda, avvalo, miyaning muhim vazifasi bor. Miyadagi neyronlar bilan bog‘liq bu vaziyatni neyrolingvistika va uning tarmoqlari o‘rganadi. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda neyrolingvistik sohalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Afaziya- nutq sistemasidagi muammolar;
- Lagapetga ehtiyojning ortishi;
- Alsgeymer kasalligiga moyillik va uning yosharishi;
- Ikki tillilik;
- Til sistemasi orasidagi yaqinliklar;
- Tashqi va ichki nutq – ong osti holatlar;
- Nutqdagi gender farqlar;
- Etiqod, yosh, soha va til hamda uning bo‘limlarining bog‘liqligi.

Qizlarning gapirish toni va o‘gil bolalarning ohangi, so‘zlarning ishlatilishi, pauza, temp, gapirish intonatsiyasidan tortib, til grammatikasi ham farqlanadi. Gender farqi odatda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farq sifatida tushuniladi, ammo har xil madaniyatlarda turli xil jinslar to‘plami mavjud. “Jins” tushunchasidan farqli o‘laroq, “gender” tushunchasi ijtimoiy toifadir, shuning uchun to‘g‘ri ma’noda gender farqlari, masalan, genetika va fiziologiyadagi farqlarni o‘z ichiga olmaydi. Ya’ni ayol va erkaklarning ikki ijtimoiy guruhga ajratsak, ulardagi til (nutq)ning miya neyronlariga qay tarzda bog‘liqligi, bunda tafovutlar katta-kichikligi, bu tafovutlarning aynan qaysi sohaga asoslanganini tekshirib chiqamiz.

Avvalo, miya haqidagi umumiy ma’lumotlarni o‘rganamiz. Miya neyron (hujayra)lardan tashkil topgan bo‘lib, usti akson(oq tolacha)lar bilan qoplangan. Insonning muloqot jarayonini miya boshqarib, miya faolligi quyidagicha bo‘ladi:

Chap yarimshar miya– tillik miya: nutq markazlari joylashgan, soʻz bilan bogʻliq tafakkur operatsiyalarini bajaradi. **Oʻng yarimshar** miya– dunyoni soʻzsiz idrok etadi, asosiy vazifani koʻzlar bajaradi. [1; 89]

Nevrologik tadqiqotlarga koʻra [2; 29], ayollar miyasining ikki yarim shari oʻzida aloqani taʼminlovchi callosum toʻqimasi (corpus callosum) nisbatan kattaroq va faolroq boʻladi. Bu holat maʼlumotlarni har ikki yarim shar orqali mos tarzda qayta ishlashni osonlashtiradi. Ikki yarim shar oʻrtasidagi bu kuchli bogʻliqlik ayollar uchun bir vaqtning oʻzida bir nechta vazifani bajara olish qobiliyatini beradi. Ayollarda hissiyotga berilib ketish va tez qaror chiqarish (intuition) holatlari ham koʻp uchraydi, bu esa mantiqiy tahlil bilan uygʻun holda rivojlangan boʻladi.

Erkaklar miyasida esa yarim sharlar oʻrtasidagi aloqa kamroq boʻlib, har bir yarim sharning muayan harakatlardagi masʼulligi oʻziga xos akslanishi tajribalarda qayd etilgandir. Chap yarim sharning analitik va mantiqqa boʻlgan ustunligi koʻproq erkaklarga xosdir. Oʻng yarim shar orqali vizual va faza qobiliyatlar ham erkaklarda kuchli namoyon boʻladi.

Ayollar va erkaklar miyasi oʻrtasidagi farqlar, asosan, miyaning morfologiyasi (tuzilishi) va funksiyasi bilan bogʻliq. Bu farqlar biologik jihatdan tashqi koʻrinishda mavjud, ammo ularning taʼsirlanishi kognitiv yoki emotsional funksiyalarni oʻzgarishini koʻrsatmasligi mumkin. Yaʼni erkaklar miya hajmi ularning jismonan kattaligiga monand ayollarga nisbatan yirikroq boʻladi va yarim sharlar oʻz faoliyatini alohida va mufassal bajaradi. Ayol miyasi biroz kichikroq boʻlib, unda ayrim hududlar erkaklarnikiga nisbatan rivojlangan va taʼsirchan boʻladi. Erkaklarda **amigdala** (hissiy reaksiyalar va agressiya bilan bogʻliq miya hududi) kattaroq va faolroq boʻlishi mumkin. Bu ularning his-tuygʻularga, xususan agressiya va impulsiv xatti-harakatlarga nisbatan yuqori javob berishini koʻrsatadi. Ayollarda esa **hipokampus** (xotira va oʻqish bilan bogʻliq miya hududi) nisbatan kengroq va rivojlangan boʻladi, bu esa ayollarning xotirasi, tilni oʻzlashtirish va emotsional xotirasi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Ayollar, koʻpincha, lugʻaviy (soʻzlashuv) va yuzlarni tanish boʻyicha yaxshiroq xotiraga ega boʻladi. Ular koʻproq ijtimoiy va emotsional jihatlariga eʼtibor qaratadilar. Erkaklar fazoviy (kuzatish, orientatsiya) va mantiqiy qobiliyatlarda yaxshiroq natijalar koʻrsatishi mumkin, bu masalan, xaritalarni oʻqish yoki makonli masalalarni hal qilishda koʻzga tashlanadi.

Ayollar va erkaklar oʻrtasidagi farqlar biroz genetik, biokimyoviy va ijtimoiy omillarga bogʻliq boʻlishi mumkin. Gormonlar, ayniqsa estrogen va testosteron, har ikki jinsning miya faoliyatiga katta taʼsir koʻrsatadi, bu esa kognitiv va emotsional farqlarga olib keladi. Ayollar koʻproq hissiy va ijtimoiy koʻnikmalarda ustun boʻlishi mumkin, erkaklar esa fazoviy va mantiqiy tafakkurda yaxshiroq natijalarga erishadilar. Shu bilan birga, bu farqlar individual xususiyatlarga bogʻliq boʻlib, ular faqat umumiy tendensiyalarni koʻrsatadi. Ayollar va erkaklar miyasi oʻrtasidagi farqlarni tushunish, nafaqat biologik va psixologik xususiyatlarni anglashga yordam beradi, balki har bir insonning oʻziga xosligini, shuningdek, ijtimoiy va muloqotdagi xatti-harakatlarini chuqurroq oʻrganish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyeva H.S. Zamonaviy tilshunoslikda neyrolingvistika sohasining paydo bo'lishi va uning ahamiyati // Filologiya ufqlari. – T.: O'qituvchi, 2023. – 89 b.
2. Berkley D. The Neuroscientific Basis of Cognitive and Emotional Differences between Men and Women. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 29 p.
3. Ma'rufjonova H. Ayol va erkaklarning miya yarim sharlari o'rtasidagi farqlar // Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi www.tadqiqotlar.
4. Neuro –Linguistic Programming: Volume I The Study of the Structure of Subjective Experience.
5. Linguisticsociety.org
6. En.m.wikidepiya.org
7. <https://regionalneurological.com/types-of-aphasia/>
8. MyAdvancedIdeas.com